


Bolalar Muqaddas Kitobi

Tasvirlab beradi



Jannat
Hudonning
Go'zal Uyi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan illustrasiya qilingan:
Lazarus

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

BFC
PO Box 3
Winnipeg, MB R3C 2G1
Canada

©2013 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.




Iso Masih yerda yashaganida U O'z shogirdlariga
Jannat haqida gapirar edi. U jannatni "Otamning
Uyi" deb atar edi va Otasining
Uyida ko'p ajoyib uy va
hovlilar borligini aytdi.
Jannat yerdagi uylarga
qaraganda eng katta
va eng chiroyli joy.



Iso: "Men sizlarga joy taylorlash uchun borayapman.
Va Men u yerga borib joy taylorlab keyin sizlarni
O'zim bilan u yerga olib ketaman" - dedi. Iso
tirilganidan keyin Jannatga ketdi. Iso
shogirdlarining ko'z
o'ngida yuqoriga
bulutlar bilan
ko'tarildi.





O'shandan beri masihiyilar har doim Uning "sizlarni
yana kelib O'zim bilan olib ketaman" degan vadasini
yodda tutishadi. Iso qaytganida nogahon
hech kim kutmagan paytda qaytishini
aytdi. Lekin Uning qaytishidan
oldin o'lgan masihiyilar
to'gridan to'g'ri Iso
bilan birga bo'lishadi.

Hudo bilan
bo'lish


Tanadan judo bo'lib
Hudovand bilan
birga bo'lishadi.




Vahiy Muqaddas Kitobning eng ohirgi kitobi hisoblanadi. U yerda Jannatning chiroyliligi tasvirlangan. Eng ajoyib narsa shuki, Jannat

Hudoning Uyi bo'lib o'ziga hos
ajoyib qilib yaratilgan.

Hudovand hamma
joyda, lekin
Uning Tahti
Jannatda.




Farishtalar Hudoni Samoda olqishlab kuylashadilar.
Shningdek Isoni bilgan hamma o'lgan
odamlar ham Hudoni jannatda
olqishlashadilar. Ular Hudoga
ajoyib chiroyli qo'shiqlarni
kuylab Uni maqtashadilar.




Qo'shiqning so'zlari
qo'yidagicha: "Sen maqtashga
loyiqsan chunki Sen bizni, O'z
qoning bilan barcha qabilalar
ichidan qutqarding va bizni
ruhoniylar qilib
yaratding."




Injilning eng ohirgi sahifalarida Jannatni: "Buyuk Isroil" deb tasvirlangan. U juda katta, billurday tiniq, tashqaridan baland devorlar qimmatbaho toshlar bilan o'ralgan, devorning asoslari marvarid toshlardan yasalgan.




Bu marvarid eshiklari hech qachon yopilmaydi.
Keling u yerga kirib bir nazar solamiz. Vay Bo'y!
Jannatning ichi naqadar chiroyli. Shahar toza
tillodan yasalgan, huddi tiniq shishaga o'hshaydi.
jannatning yerlari
hatto tillodan
qilingan.




Chiroyli, daryodan oqayotgan tiniq hayot suvi Hudoning Tahtidan oqadi. Daryoning ikki tomonida ham Eden bog'ida topilgan hayot darahti bor. Bu daraht o'zgacha. Unda 12 hilgacha mevalar o'sadi, bu daraht har oyda turli hil mevalarni yetishtiradi. Darahtning yaproqlari turli hil halqlarga shifo beradi.



Jannatda na quyosh na oy bor. Hudoning Sharafi u yerni o'zining ajoyib nuri bilan yoritadi. U yerda hech qachon kech bo'lmaydi.




Hatto Jannatdagi hayvonlar boshqacha. Ularning barisi qo'lga o'rgatilgan va do'stona. Bo'rilar va qo'zilar birgalikda o'tlashadi. Hatto kuchli sherlar ho'kkizlar bilan bir joyda oziqlanishadi. Hudo: "ular Mening buyuk Sion tog'imda shikastlanishmaydi va o'ldirishmaydi" – deydi.



Biz atrofga qarasak,
Jannatda ko'p narsalar
bo'lmaydi masaln:
g'azablanish,
yomon so'zlar
hech qachon
eshitilmaydi.
Hech kim
bir biri
bilan
urushmaydi
va hudbinlik
qilmaydi.

Eshiklar gulflanmaydi
chunki Jannatda
o'g'rilar bo'lmaydi. U
yerda yolg'onchilar,
qotillar,
buzg'unchilar
yoki yovuz
odamlar
bo'lmaydi.
Jannatda
hech
qanday
gunoh
bo'lmaydi.



Jannatda yig' I, ohu vohlar
bo'lmaydi. Bazan Hudoning
odamlari bu hayotda azoblardan
yig'lashadi. Jannatda esa Hudo
har bir ko'z yoshni artib
tashlaydi.



U yerda o'lim bo'lmaydi. Hudoning odamlari abadiy
Hudo bilan yashaydilar. U yerda na qayg'u, na ko'z
yosh, na izardirob bo'ladi. Na kasallik, na ajralish, na
dafn marosimi bo'ladi.

Barcha odamlar
Hudo bilan
hursandchilik
qilishadi.



Eng yahshisi, jannat Isoga Haloskorim deb ishongan bolalar, o'g'illar va qizlar, va katta yoshdagilar uchun bo'ladi. Jannatda Qo'zining Hayot Kitobi deb nomlangan Kitob bor. Bu Kitobda odamlarning ismlari yozilgan. Siz bilasizmi u yerda kimning ismlari yozilgan? Isoga imon keltirgan barcha odamlarning ismlari yozilgan. Sizning ismingiz u yerda yozilganmi?



Injilda odamlarni jannatga taklif qilayotgan Hudoning ajoyib so'zlari yozilgan: "Muqaddas Ruh Keling! Bu so'zni eshitayotganlar Keling! chanqaganlar Keling! Barcha halqlar Kelin va hayot suvini tekin iching!"



Jannat Hudoning Go'zal Uyi


Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Yuhanno 14; 2 Korinfliklarga 5;
Vahiy 4, 21, 22

"Kalomining ochilib qolganda ziyo ochar."
Zabur 119:130






Hikoya tugadi



60



60



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar sis Isoga ishonsangiz, Undan gunohlarингiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga
ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudolingga ishonaman, Sen yer yuziga kelib
mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir
kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan
yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim
uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

